

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” YO‘NALISHI TALABALARIGA O‘ZBEK TILI DARSLARIDA ICHKI ISH HUJJATLARINI O‘RGATISH

Azoda Beysenova¹

Abstrakt

Barcha soha vakillari kabi oliy ma’lumotli soliq sohasi mutaxassisi normativ hujjatlar bilan ishlay olishi muhimdir. Jumladan, imlo qoidalarini yaxshi bilishi, rasmiy uslubdagi hujjatlarga qo‘yiladigan talablardan xabardor bo‘lishi, ularga rioya qilishi kerak.

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili darslarida sohaviy normativ hujjatlar bilan ishlash haqida so‘z yuritiladi. Xususan, “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi rus guruhлари uchun darsliklardagi muammolar, ichki hujjatlar bilan ishlashdagi kamchiliklar sanab o‘tilgan. Muallif muammoni bartaraf etish uchun ushbu soha talabalari uchun darslarni tashkillashtirish uchun dars ishlanma va takliflar bergan. O‘zbek tili darslarida sohaviy hujjatlarning berilishi mutaxassislarning nutqiy kompetensiyasi bilan bir qatorda o‘zbek tilida sohaviy terminlarni o‘rganishiga sabab bo‘ladi.

Kalit so‘zlar: *normativ hujjatlar, kompetensiya, tinglab tushunish, o‘qish, yozish, gapirish.*

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 20-oktabrdagi Farmoni asosida “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” [lex.uz] ishlab chiqilgan. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, oliy ta’lim muassasalarida o‘zbek tili kafedralari sonini oshirish, sohaviy-terminologik, izohli lug‘atlar

¹ Beysenova Azoda Ixtiyor qizi – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistranti.

E-pochta: beysenova.azoda@bk.ru

ORCID: 0009-0006-4089-1508

Iqtibos uchun: Beysenova, A.I. 2024. “Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida ichki ish hujjatlarini o‘rgatish”. O‘zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2(5): 66-75.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/CNKS6535

yaratish, davlat tilida sohaviy ish yuritish hujjatlarining yagona elektron namunalarini ishlab chiqish ko‘zda tutilgan. Bu o‘zbek tilini sohalarda o‘qitishda nafaqat og‘zaki va yozma muloqotning balki, normativ hujjatlar ham davlat tilida yuritilishi kerakligiga asos hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ma‘lumotli soliq sohasi mutaxassisi normativ hujjatlar bilan ishlay olishi muhimdir. Xususan, o‘zbek tili imlo qoidalarini yaxshi bilishi, rasmiy uslubdagi hujjatlarga qo‘yiladigan talablarni anglashi va faoliyati davomida ushbu qoidalariga rioya qilishi kerak. Bu o‘z navbatida ushbu soha xodimlari davlat tilini talab darajasida bilishlari zaruratini bildiradi. “Bojxona va soliq yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim oladigan bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy malakalarini shakllantirishda ularni hujjatlarni to‘g‘ri rasmiylashtirishga o‘rgatish dolzarb va nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Biroq ushbu yo‘nalishlarning yangiligi hamda muammolarning talayligi tufayli bojxona va soliq tizimlari xodimlarining davlat tilidagi og‘zaki va yozma savodxonligi talab darajasida emas” [Asilova G.A. 2016].

ASOSIY QISM

Davlat ta‘lim standartiga ko‘ra maktab va kollejni tugatgan o‘quvchi umumiy huquqiy hujjatlar bilan ishlay oladi, lekin umumiy huquqiy hujjatlardan tashqari sohaviy normativ hujjatlarining ko‘pligi oliy ta‘limda sohaga oid hujjatlar bilan tanishish kerakligini taqazo qiladi. Shu bois, soliq sohasi talabalarining o‘zbek tili fani doirasida normativ hujjatlarni ham o‘rgatib borish o‘rinli. Oliy o‘quv yurtlari darsliklarida soha doirasidagi hujjatlar bilan ishlashga urg‘u qaratilmaganini ko‘rish mumkin.

Darsliklar o‘quv rejasida juda kam mavzular rasmiy uslub- ga ajratilgan. “Ichki ish yuritish hujjatlarini yanada kengroq berish, ularni davlat tilida to‘g‘ri yozish va rasmiylashtirish qoidalarini tushuntirishga alohida e‘tibor qaratilsa, ichki hujjatlarni tuzish ko‘nikmalarni hosil qilishga qaratilgan amaliy topshiriqlar berilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi” [Asilova G.A. 2016] deydi G.Asilova o‘z monografiyasida.

“Soliqlar va soliqqa tortish” ta‘lim yo‘nalishi uchun tuzil- gan ishchi o‘quv dasturida [“O‘zbek tili” fanidan ishchi o‘quv das- turi, 2014] rus guruhlariga uchun o‘zbek tili o‘quv dasturiga nazar solsak, sohaga oid ichki normativ hujjatlarining hech biri dasturga kiritilmaganini ko‘rishimiz mumkin. 2023-yilga kelib esa, Fiskal institutining “Soliqlar va soliqqa tortish(faoliyat turlari bo‘yicha)” yo‘nalishi uchun tasdiqlangan o‘quv rejasiga “O‘zbek tili” fani kirit-

ilmagan[Soliqlar va soliqqa tortish(faoliyat turlari bo'yicha) yo'nalishi o'quv rejasi]. Lekin, nafaqat bu soha balki barcha soha xodimlarining o'zbek tilini ham kommunikativ, ham rasmiy uslubni bilishi ish faoliyatida muhim ahamiyatga ega. O'zbek tilini darslarida hujjatlar bilan ishlash topshiriqlar ichida hujjatlardan namunalar berib borilishi orqali o'rgatish samaraliroq bo'ladi. Psixolingvistik tomondan olib qaralaganda, talaba "Davlat tilida ish yuritish" yoki "Nutq uslub-lari" darslarida faqat hujjatlar haqida ma'lumot olishi kerakligi, bu uning uchun qiyinligini psixologik jihatdan uning ma'lumotlarni qabul qilish jarayoniga salbiy ta'sir qilishi mumkin. O'zbek tili darsida turli mashqlar, xususan, gapirish, tinglab tushunish, yozish, o'qib tushunish kabi kompetensiyalar bilan bir qatorda hujjatlar bilan tanishib borish biroz yengilroq bo'ladi. Quyida soliq sohasida o'zbek tili fani uchun bir paralik dars ishlanma namunasi keltirilgan:

Darsning kirish qismida talabalarning gapirish ko'nikmasi uchun savollar beriladi. Savollar sohaga oid terminlarni o'zbek tilida qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

SOLIQLARNI TO'LADINGIZMI?

1. Savollarga javob bering.

Soliqlarni o'z vaqtida to'laysizmi?

Qanday soliq turlarini to'laysiz?

Keying topshiriqda tinglab tushunish kompetensiya uchun va keying mashqda sohaga oid savollarga javob beriladi.

2. Matnni tinglang. Bo'sh qoldirilgan joylarni to'ldiring.

Arablar Movarounnahrni ___ qilganidan keyin yer-mulkleri xalifaga ___ bo'lib qolgani tufayli yirik zodagon qatlamlarning xususiy mulki ham xalifa mulkiga, yirik yer egalari bo'lmish dehqonlar esa o'z yerlarida ijaradorga ___, daromadning ma'lum qismini xalifaga _____ bo'ldilar. Soliq yig'uvchilar – "omil" deb _____. Soliqlar pul yoki mahsulot – "natura" shaklida to'langan. Shu bilan birga, o'sha davrda soliqlar quyidagi shakllarda yig'ilgan:

- vazifa (o'lpon);
- juzya (jon solig'i);
- xiroj (yer solig'i).

_____ soliqlardan xirojning undirilish tartibi 3 xil shaklda amalga oshirilgan:

misahha – qat'iy belgilangan stavkada;

muqotta – qat'iy belgilangan summada;

muqassama – hosilning muayyan _____ (masalan, hosilning 1/3 miqdori) amalga oshirilgan. Soliq miqdori shartnoma bo'yicha belgilangan, juzya _____ o'ziga to'qlik darajasiga qarab undirilgan.

Xiroj asosan Navro'z bayrami arafasida yig'ib olingan. Juzyani musulmon bo'lmagan _____ (ozod erkaklar) to'laganlar. Xotin-qizlar, keksalar, voizlar, kambag'allar va qullar bu soliqni to'lashdan ozod qilingan.

3. Matndan foydalangan holda savollarga javob bering.

Qat'iy belgilangan stavka va qat'iy belgilangan summa o'rtasi-da qanday farq bor?

Sanab o'tilgan soliqlarning hozirgi nomlarini ayting.

Talabalar soliq auditi haqida o'zbek tilidagi qoidalarini o'rganadi va leksik birliklar bilan tanishadi.

4. Hujjat haqidagi ma'lumotlar bilan tanishing.

Soliq auditi – muayyan davr uchun soliqlar va yig'implarni hisoblab chiqarish hamda to'lashning to'g'riligini tekshirishdir.

Soliq auditi faqat yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga mansub soliq to'lovchilarga nisbatan o'tkazilishi mumkin.

Soliq organlari soliq auditi o'tkazilishi boshlanishidan kamida 30 kalendar kun oldin soliq to'lovchiga tekshiruv o'tkazilishi to'g'risida xabarnoma yuborishi lozim.

Soliq kodeksi, 140-modda

Soliq auditi davomiyligi 30 ish kunidan oshmaydi.

Soliq kodeksi, 141-modda

Qonuchilikda nazarda tutilgan hollarda soliq auditini o'tkazish muddati 3 oygacha uzaytirilishi mumkin.

Soliq kodeksi, 142-modda

Soliq organlari soliq to'lovchining aynan bitta davr uchun aynan bir xil soliqlar bo'yicha 1 martadan ortiq soliq auditi o'tkazishga haqli emas. Soliq auditini o'tkazishda soliq organiga ma'lum bo'lmagan yangi holatlar aniqlangan taqdirda soliq organi takroriy soliq auditini tayinlashga haqli.

Soliq kodeksi, 143-modda

O'tkazilgan soliq auditi natijalariga ko'ra dalolatnoma tuziladi.

Soliq auditi dalolatnomasi va boshqa materiallar ko'rib chiqish natijalari bo'yicha soliqlar va penyalar qo'shib hisoblash, javobgarlikka tortish yoki buni rad etishni nazarda tutuvchi soliq organi qarori qabul qilinadi:

Soliq kodeksi, 156 va 159-modda

Soliq organining qo'shimcha soliq hisoblash va jarimalarni qo'llash haqidagi qarori ustidan yuqori turuvchi organga shikoyat qilish mumkin.

Yuqori turuvchi organga shikoyat berilganda, shikoyat berilgan soliq organi qarorining ijrosi, shu jumladan qaror bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar, penyalar va jarimalarni undirish, yuqori turuvchi soliq organi tomonidan qaror qabul qilingunga qadar to'xtatib turiladi. Yuqoridagi moddalardan keltirilgan sohaga doir hujjatga namuna keltiriladi va qanday to'ldirilishi tushuntiriladi.

Namuna:

(soliq to'lovchi nomi, STIR, manzili)
Soliq auditini o'tkazish to'g'risida
XABARNOMA

(sana) _____

(soliq organi nomi)

shuni ma'lum qiladiki, soliq to'lovchilarni tanlab olish natijasida olingan xavf omillarini tahlil qilish natijalariga ko'ra, _____

(soliq to'lovchi nomi)

yuqori tavakkalchilikka mansub bo'lgan soliq to'lovchi sifatida tavsiflandi.

Soliq audit soliq to'lovchining 20____-20____ yillardagi faoliyati bo'yicha barcha turdagi soliq va yig'implari yoki _____ solig'i bo'yicha (aniq soliq turi ko'rsatiladi)

Soliq audit _____ 20____ yilda boshlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 140-moddasi talablariga muvofiq soliq to'lovchi soliq audit boshlanguniga qadar quyidagi hujjatlar tayyorlab qo'yilishi lozim:

Soliq to'lovchi ro'yxatga olingan manzilida joylashmagan taqdirda, xabarnoma yuborilgankundan e'tiboran besh ish kuni mobaynida soliq to'lovchining haqiqatda joylashgan joyi bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari ilova qilingan holda xabarnoma yuborgan soliq organiga ma'lumot berishi lozim. Soliq to'lovchi joylashgan joyini tasdiqlovchi hujjat bo'lib quyidagilar hisoblanadi: ko'chmas mulkga bo'lgan egalik huquqini tasdiqlovchi hujjat (undan foydalinish) nusxasi, ko'chmas mulkga egalik huquqi mavjud bo'lgan shaxs bilan tuzilgan ijara shartnomasi nusxasi. Soliq to'lovchining rahbari (vaqtincha rahbar vazifasini bajaruvchi shaxs yoki imzo chek-

ish huquqiga ega bo‘lgan o‘rinbosari) soliq to‘lovchining ro‘yxatga olingan (yoki joylashgan) manzilida bo‘lib, soliq auditi jarayonida ishtirok etishi ta‘minlansin.

(soliq organi nomi)

(imzo)

(F.I.O.)

Ijrochi: _____

(lavozimi, F.I.O. va telefon raqami)

O‘qib tushunish uchun mashq beriladi. Mashq sohaga tegishli matnni o‘z ichiga oladi.

5. Quyidagi jummalarni paragraflar bilan moslashtiring.

1) Soliq yig‘uvchilar uchun maosh joriy etilishi – Amir Temur islohotlari

2) Markaziy Osiyodagi soliqlar

3) Ilk soliq hujjatidan to odatiy tartibdagi to‘lov munosabatlarigacha

4) O‘zbekistondagi soliq majburiyati

5) Zamonaviy shakldagi daromad solig‘ining vatani – Buyuk Britaniya.

a) Miloddan oldingi birinchi ming yillikning boshlaridayoq Markaziy Osiyo hududlarida ko‘chmanchilik sharoitida, o‘zlari uchun qulay joy izlab yurgan ko‘plab urug‘ va qabilalar yer maydonlari, suv, o‘tloqlarni egallash maqsadida kurashib kelishgan. Ayrim hollarda esa ular o‘zlaridan kuchliroq qabilalarga yer solig‘i, ya‘ni o‘lpon to‘lab turganlar. Lekin fors hukmdori Doro davriga kelganda ilk bor doimiy tartibdagi soliqlar joriy qilinadi. Doro soliq tizimini faqat o‘z mamlakatida emas, balki egallab olgan mamlakatlariga ham joriy etadi. Keyinchalik Aleksandr Makedonskiy Markaziy Osiyoni bosib olgach esa yerlik aholi soliqlarni yunonlar tamoyili bo‘yicha to‘lay boshlagan: soliqlar daromad solig‘i va ehsonlardan iborat bo‘lgan. Daromad solig‘i daromadning o‘ndan yoki yigirmadan biri miqdorida undirilgan, sabab sifatida esa jamoat manfaatlarini himoya qilish maqsadi ko‘rsatilgan.

b) Yevropa davlatlarida ham soliq undirishning o‘ziga xos tarixi bor. Masalan, Angliyada qirol Jon tomonidan 1203-yilda junga eksport solig‘i joriy etilgan. 1275-yilda esa qirol Eduard vino solig‘ini joriy etadi. 1572-yilda Angliyada kambag‘allarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida kambag‘allik solig‘i ham amalga kiritiladi. 1707-

yil 1-may kuni Buyuk Britaniya tashkil topgach, Angliya va Uyelsda 1696-yilda yuzaga kelgan pul defitsiti muammosini bartaraf etish uchun yangi soliqlar haqida o'ylana boshlanadi va tez orada daromad solig'i g'oyasi vujudga kela boshlaydi. Odamlar dastlab daromad solig'i to'lashdan bosh tortishadi. Ular o'zlari topgan daromadning ma'lum qismini davlatga o'tkazish shaxs erkinligiga tahdid deb hisoblashgan. Bular tufayli Buyuk Britaniyada daromad solig'i doimiy ravishda joriy etilishi uchun 1842-yilga qadar vaqt o'tadi.

c) Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari «Temur tuzuklari»da ifodalangan: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni xonavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi». Amir Temurgacha bo'lgan davrda soliq yig'uvchilarning ish haqi soliq to'lovchilar hisobidan bo'lgan. Shuning uchun ular qonunda ko'zda tutilmagan soliqlarni undirishga ham harakat qilar edilar. Amir Temur soliq undiruvchilarga xalqning ustiga yuk bo'lmasligi uchun ularga maosh tayinladi.

d) AQShda daromad solig'ini joriy etish fuqarolar urushi (1861-yil) tarixi bilan bog'lanadi. Abraham Linkoln AQSh tarixida birinchi bo'lib, 1861-yil 5-avgustda shaxslarning topayotgan daromadlaridan davlatga daromad solig'i to'lashlari lozim ekani to'g'risidagi qonunga imzo chekadi. Soliqlar tushumi urush harakatlarini qo'llashga yo'naltirilishi ko'zda tutilgan edi. 1894-yilda esa Kongress tomonidan federal daromad solig'i joriy qilinadi. Biroq bir yildan so'ng AQSh Konstitutsion sudi uni qonunlarga zid deb topgan. Sababi federal daromad solig'ini to'lash tartibida har bir shtatning aholisi soni alohida tartibda hisoblab chiqilmagan edi. Keyinchalik esa Kongress tomonidan 1909-yilda Konstitutsiyaga 16-o'zgarish kiritiladi. Bu o'zgarish shtat aholisining sonidan qat'i nazar, har bir odamning shaxsiy daromadlarini soliqqa tortishga imkon bergan. O'zgarish 1913-yilga kelibgina yetarli sonli shtatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan va hozirga qadar amerikaliklar o'z daromadlaridan davlatga soliq to'lab kelishadi.

e) O'zbekistonda ham fuqarolar va yuridik tashkilotlar turli soliqlar to'lashadi: daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, yagona soliq to'lovi, ayrim tovarlarga nisbatan aksiz solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqlar va maxsus to'lovlar, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga binoan, O'zbekiston rezidentlari bo'lgan jismoniy shaxslar uchun jis-

moniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining asosiy stavkasi – 12 foiz, dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar uchun foiz stavkasi – 5 foiz etib belgilangan.

O'qib tushunish uchun yana bir topshiriq beriladi. Ushbu matn ham sohaga oiddir. Topshiriq ma'lumotlarni umumlashtirib, mazmunni tushunish ko'nikmasini rivojlantiradi.

6. Quyida berilgan matndagi har bir xatboshiga nom bering.

Tarixda soliq solishning o'ta g'ayrioddiy va g'aroyib usullari bo'lgan. Aholidan pul yig'ib olish uchun davlatlar qanday soliqlar- ni o'ylab topmagan ekan? Masalan, bir vaqtlar “farzandsizlik solig'i” keng tarqalgan. Uni uylanmagan va farzandsiz er-xotinlar to'lab borgan. Gvineya Respublikasi aholisidan hozir ham tinchlik solig'i undiriladi.

Bu soliq bizga tarixdan yaxshi ma'lum. Pyotr I uni 1689-yilda joriy qilgan. Soliqlarning bir necha turi bor bo'lib, uni boyarlar, savdogarlar va dehqonlar to'lab borar edi. Masalan, dehqon faqat o'z qishlog'ida soqol bilan tekin yurishi, shaharga kirayotganida 1 tanga to'lab kirishi mumkin edi. Bechorahol soqolli erkaklar davlat oldidagi qarzlari uchun hatto surgun qilingan.

Bir paytlar ingliz hukmdorlari odamlar faqat bu dunyoda yashagani uchun pul to'lashi kerak, degan qarorga kelishdi. Hayot solig'i shu tarzda vujudga keldi va XIV asrda Angliya aholisi ushbu qonunga muvofiq soliq to'lay boshladi. Natijada mamlakatda “Dehqonlar qo'zg'oloni” nomini olgan katta qo'zg'olon yuz berdi.

Yana bir qiziq soliq 1797-yilda inglizlar tomonidan joriy qilingan. Bu safar davlat xazinasiga soat egalari tomonidan to'ldirildi. Qonun atigi 1 yil amal qildi, aynan shu davr davomida har bir soat egasi mamlakatga 5 shillingdan to'lagan.

Pyotr I davrida Rossiyada fuqarolar nafaqat soqol uchun, balki ko'zlari uchun ham soliq to'lashgan. Soliq XVIII asr boshlarida joriy qilingan bo'lib, odamlar ko'z rangiga qarab davlatga majburiy to'lov, ya'ni qora ko'zli kishi davlat xazinasiga 3 oltin, kulrang ko'zli kishi esa 8 tanga to'lashga majbur edi.

Har yili Alp tog'laridagi ko'p sonli chang'i sportini sevu- vchilarning 150 mingdan ortig'i turli jarohatlar olishi natijasida ularni davolash qiymati milliard shillingdan oshib ketadi. Avstriyadagi klinikalarga moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida ushbu soliq joriy qilindi. Endi chang'ichilar har bir uchib tushgani uchun

gips solig'ini to'laydi, mablag'lar esa mahalliy tibbiyot muassasalari-ga o'tkazib beriladi.

Hujjat namunasi asosida talaba mustaqil ravishda ushbu hujjatni yozishi kerak. Bu ushbu hujjat bilan bilan ishlash ko'nikma-sini paydo qiladi.

7. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida, soliq auditi o'tkazili-shi haqida xabarnoma yozing.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ushbu dars ishlanma namunasi "Soliq va soliqqa tortish" yo'nalishi rus guruhleri talabalarining namunaviy o'quv dasturida ko'zda tutilgan malakaviy talablarga javob berishi-da samara bera oladi. Soliq sohasi xodimlarining ish faoliyati aho- li bilan muloqotda bo'lishni talab qilgani sababli, ularning tinglab tushunish, sohaga oid terminlar va hujjatlarni o'zbek tilida yozma va og'zaki tushuntirib bera olishi juda muhim. Amaldagi o'quv qo'llan-malarida tinglab tushunish va hujjatlardan namunalar yo'qligi sa-babli ushbu namuna ularga nisbatan ustunlikka ega.

Adabiyotlar

- Asilova G. 2016. Bojxona va soliq yo'nalishlari rus guruhleri talabalarini o'zbek tilida kasbiy muloqot yuritishga o'rgatish. – Toshkent: Fan va texnologiya. – 227 b.
- Husanov N., Xo'jaqulov R., Dilmurodova N. 2017. O'zbek tili. – Toshkent moliya imstituti. – 336 b.
- O'zbek tili fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo'nalishi uchun). Rafiyev A., Muhamedova S., Usmonov S., Lafasov U. 2011. – Toshkent: O'zMU. – 20 b.
- "O'zbek tili" fanidan ishchi o'quv dasturi. 2014. "Soliqlar va soliqqa tortish" bakalavriat yo'nalishi uchun. – Toshkent: Soliq akademiyasi. – 26 b.
- Soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal instituti "Soliqlar va soliqqa tortish(- faoliyat turlari bo'yicha)" yo'nalishi 2023-2024-yil uchun tas-diqlangan o'quv rejasi
- <https://lex.uz/docs/-5058351>

TEACHING INTERNAL WORK DOCUMENTS IN THE UZBEKI LANGUAGE CLASSES OF THE «TAXES AND TAXATION» DEPARTMENT

Azoda Beysenova¹

Abstract

It is important for a highly educated tax specialist to be able to work with regulatory documents, as well as representatives of all sectors. In particular, he should know the rules of spelling, be aware of the requirements for official style documents, and follow them.

This article talks about working with sectoral normative documents in Uzbek language classes in higher education institutions. In particular, problems in the textbooks for Russian groups in the field of «Taxes and taxation» and shortcomings in working with internal documents are listed. The author has made lesson plans and suggestions for organizing classes for students in this field to overcome the problem. Providing field documents in Uzbek language classes causes specialists to learn field terms in Uzbek along with their speaking competence.

Key words: *regulatory documents, competence, listening comprehension, reading, writing, speaking.*

References

- Asilova G. 2016. Bojxona va soliq yo‘nalishlari rus guruhlariga talabalarini o‘zbek tilida kasbiy muloqot yuritishga o‘rgatish. – Toshkent: Fan va texnologiya. – 227 b.
- Husanov N., Xo‘jaqulov R., Dilmurodova N. 2017. O‘zbek tili. – Toshkent moliya instituti. – 336 b.
- O‘zbek tili fanidan namunaviy dastur (bakalavr yo‘nalishi uchun). Rafiyev A., Muhamedova S., Usmonov S., Lafasov U. 2011. – Toshkent: O‘zMU. – 20 b.
- “O‘zbek tili” fanidan ishchi o‘quv dasturi. 2014. “Soliqlar va soliqqa tortish” bakalavriat yo‘nalishi uchun. – Toshkent: Soliq akademiyasi. – 26 b.
- Soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal instituti “Soliqlar va soliqqa tortish(- faoliyat turlari bo‘yicha)” yo‘nalishi 2023-2024-yil uchun tasdiqlangan o‘quv rejasi.
- <https://lex.uz/docs/-5058351>.

¹ *Beysenova Azoda Ixtiyor qizi* – Graduate student of the Faculty of Uzbek Language Education at Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

E-pochta: beysenova.azoda@bk.ru

For reference: Beysenova, A.I. 2024. “Teaching internal work documents in the Uzbek language classes of the «Taxes and taxation» department”. Uzbekistan: language and culture. Issues of Applied philology. 2 (5): 66-75.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/CNKS6535

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.